

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
N.O.Saidova	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
M.A.Abdubannobova	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
O.A.Ashurova	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli.....	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
V.T.Jo'rayev	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	269
Z.M.Xursanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	274
M.A.Jalilov	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida.....	279
Z.X.Siddiqov	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar.....	283
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
Г.П.Наркабилова	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
N.Q.Olimova	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish.....	299
D.T.Rustamova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish.....	304
Y.U.Egamberdiyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish.....	309
U.Y.Axmedova	
Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish.....	313
M.U.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi.....	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli.....	321
M.A.G'ofurova	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
D.M.Gazieva	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



UO'K: 37.03:378.2

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI IJODIY O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ТВОРЧЕСКОГО САМОРАЗВИТИЯ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ****IMPROVING MECHANISMS OF CREATIVE SELF-DEVELOPMENT OF FUTURE
TEACHERS**

Aripov Zoirjon Toirjonoich 
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

O'qituvchilik – katta san'atdir. Bu san'atga pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasini bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi pedagogik jihatdan tadqiq qilingan.

Аннотация

Преподавание – великое искусство. Педагогу нелегко и спонтанно достичь этого искусства. Поэтому лишь тот, кто обладает воздухом, азартом, быстрым и глубоким пониманием требований времени, последовательно повышает свой научный, общественно-политический уровень, педагогическое мастерство, тщательно вооружённый идеей и идеологией независимости, способен добиться успеха. профессию учителя, то есть стать настоящим наставником здорового поколения.

В данной статье педагогически изучается вопрос совершенствования механизмов творческого саморазвития будущих учителей.

Abstract

teaching is a great art. This art is not easily, spontaneously achieved by an educator. Therefore, only those who have an air, passion, a quick and deep understanding of the requirements of the time, consistently increasing their scientific, socio-political level, pedagogical skills, carefully armed with the idea and ideology of independence, are able to achieve the teaching profession, that is, to become a true mentor for the healthy generation.

In this article, the issue of improving the mechanisms of creative self-development of future teachers is studied pedagogically.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogik mahorat, o'qituvchi, nutq madaniyati, o'z-o'zini rivojlantirish, qobiliyat, bo'lajak o'qituvchi, innovatsion jarayon.

Ключевые слова: образование, педагогическое мастерство, учитель, культура речи, саморазвитие, способности, будущий учитель, инновационный процесс.

Key words: education, pedagogical skills, teacher, speech culture, self-development, ability, future teacher, innovation process.

KIRISH

O'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'lim-tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. O'qituvchi(pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

“Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'zini o'zi rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda, ularda innovatsion kompetentlikni takomillashtirishda o'z-o'zini rivojlantirish tizimining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga

ko'tarish nazarda tutilgan"[1] bir qator me'yoriy-huquqiy asoslar ham o'z-o'zini rivojlantirish orqali ta'lim jarayoni sub'yektlari kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonunni amaliyotga tadbiq etish, Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilganidek, o'z fanlari buyicha tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarlik va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerak. Dars berish san'atini mukammal egallagan o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablarni uch asosiy guruxga ajratishimiz mumkin: umuminsoniy xususiyatlar, o'qituvchi kasbining alohida jihatlari belgilovchi xususiyatlar, fan bo'yicha maxsus bilimlar va ko'nikmalar. Psixologlar kasbiy faoliyatni asoslashda shaxsning aqli, hissiyoti va irodasi sintezini o'zida aks ettiruvchi pedagogik qobiliyatlar guruhiga murojaat qiladilar.

Pedagogik qobiliyatlar qatoriga didaktik, loyihalay olishlik, istiqbolni belgilay olishlik, tezkor natijaga erishishlik, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari kiradi. Shu bilan birgalikda, u umuminsoniy xususiyatlar, ma'naviy-psixologik, ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik qobiliyatlar, amaliy bilim va ko'nikmalar ya'ni umumpedagogik (axborot, rivojlantiruvchi), umummehnat (loyihalash, tashkilotchilik), mustaqil tashkil bo'luvchi (bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish) xususiyatlar o'qituvchi shaxsining psixologiyasi tarkibida alohida ajralib turishi kerak. O'qituvchi – bu mazmuni faqatgina bilimlarni yetkazish bo'lgan kasb emas, balki insonni shaxs sifatida shakllantirishdagi muhim ma'suliyatli vazifani bajaruvchidir.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablar kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik alohida o'rin egallaydi. U o'zida o'qituvchi shaxsining asosiy kasbiy xususiyatlarini mujassam etadi. O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalishlari o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqish, pedagogik iste'dod, kasbiy pedagogik ishtiyoq kabilarni o'z ichiga oladi. O'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqish pedagogik yo'naltirilganlikning asosi hisoblaniladi, u pedagogik faoliyatga, bolalarga, ota-onalarga bulgan ijobiy munosabatda, hamda pedagogik bilimlarni egallashga bo'lgan intilishda o'z aksini topadi.

Zamonaviy psixologik manbalarida "o'z-o'zini baholash", "o'z-o'zini rivojlantirish" atamallari, ya'ni shaxsning qobiliyatlari, fazilatlar va jamiyatdagi o'rnini baholash, kasbiy yuksalish to'g'risida juda ko'p fikrlar mavjud. Bu bejizga emas, albatta, chunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashtirish davrida noyob kapital sifatida inson kapitali – shaxsiga qo'yilayotgan talablar kuchayib bormoqda.

"O'zining borligini anglashi, odamning o'zini kim deb bilishi - o'quvchi, ishchi, o'qituvchi, muhandis va shunga o'xshash deb anglashi, o'zining o'tmishini va kelajagini anglashi, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatini anglashi, o'z huquq va burchlarini anglashi, o'zining fazilat va kamchiliklarini va shunga o'xshashlarni anglashi o'zini anglashga kiradi. Shaxs o'zini anglaganligidan o'zini-o'zi kuzata oladi va o'zini-o'zi bilib oladi, ko'ngildan o'tgan kechinmalarni tushuna oladi, o'zining xatti harakatlariga o'zi tanqidiy ko'z bilan qaray oladi. Shaxsning o'zini anglashi va o'zini bilishi o'z xulq-atvorini boshqarish uchun zarur shartdir, o'zini-o'zi tarbiyalash uchun o'z aqlini o'zi o'stirishi uchun zarur shartdir"[2].

O'z-o'zini baholash natijalarini inobatga olgan holda **o'z-o'zini rivojlantirish**, garchi bu murakkab jarayon, **mashaqqatli mehnat** bo'lsa-da, o'ziga xos afzalliklarga ega, shuningdek, rahbar uchun individual, shaxsiy rivojlanish kafolatiga xizmat qiladi. Bunda motivatsiya, ya'ni shaxsiy va kasbiy taraqqiyot ehtiyoji, ishtiyoqi darajasi bevosita kasbiy yuksalish dinamikasi oshadi, faoliyat natijaviyligi, samardorligini ta'minlanadi.

Har qanday o'qituvchi, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli etib o'quvchilarga yetkaza olishi bolalarni shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchi obro'sini ko'taradi. O'quvchilar

PEDAGOGIKA

o'qituvchi bilimining bu bilimlarni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning shu predmetga bo'lgan qiziqishini, uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

“O'qituvchilik kasbiga kirish va pedagogik mahoratni egallash jarayoni, uni maktab o'qituvchilar jamoasiga kiritib, unda o'z o'rnini topib keta olishiga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni yo'qotish uchun harakat qilish uni o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi. Shu bilan birga o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga harakat etish kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.”[3, 45].

Mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy “O'qituvchilik yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortida ergashtiruvchi va o'z e'tiqodiga ega bo'lgan shaxs.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, hamda o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o'z kuchiga ishonish, o'z kasb mahoratini tinmay oshirib borish, jarayonlarni emotsional-qat'iylik bilan boshqara bilish, kasbiy kompetentsiyaning yuzaga chiqishi natijalari shular jumlasidandir. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishni, qobiliyatlarni talab qiluvchi ijodiy jarayon hisoblanadi. Ijodiy faoliyat – insonning uzoq faoliyati asosi, barcha moddiy va ma'naviy boyliklari manbaidir. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda insonning ijodkorlik faoliyati, ijodiy fikrlashining asosiy unsurlari shakllanishi darajasi katta ta'sir ko'rsatadi va o'qituvchilik faoliyatining sermahsulligini oshiradi.

Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsg'ulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.

XULOSA

Hozirgi vaqtda ilm-fan o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining mohiyatiga kirib borish uchun yetarli miqdordagi haqiqiy materiallarni to'plagan. O'z-o'zini rivojlantirish mexanizmi quyidagi xususiyatlarga ega: bo'lajak o'qituvchi ijtimoiy mezonlarga muvofiq hayot maqsadlarini, ideallarini tanlaydi, o'zini jamiyatdagi hayotga tayyorlaydi, atrofdagi dunyoni yaxshilash bo'yicha jamoaviy faoliyatda takomillashadi. Ushbu o'z-o'zini rivojlantirish va tarbiyalash omillari o'rtasida murakkab o'zaro bog'liqlik va qarama-qarshiliklar mavjud: hayotning maqsadi bitta bo'lishi mumkin, va ehtiros - boshqa sohada, natijada o'zini yaxshilash istagi va haqiqiy o'zini o'zi tarbiyalash o'rtasida nomuvofiqlik paydo bo'ladi va hokazo. va qarama-qarshiliklarni har doim ham o'quvchining kuchi bilan hal qilish mumkin emas.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini o'sishida telekommunikatsiyalar, kompyuter va axborot-texnologiyalarining faol roli oshishini, odamlarning faoliyat va turmushi texnik qurilmalar va xizmatlarning eng zamonaviy turlari bilan jihozlanishini ta'minlash, respublikaning jahon jarayonlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi imkonini beradi.

Demak, o'z-o'zini rivojlantirish - bu pedagogik yo'naltirilgan jarayon. O'z ustida ishlashga psixologik va amaliy tayyorgarlik bu ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019 yil 8 oktyabr, PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz.
2. Куводдиқова, Ш. (2022). Шахсинг ўзини англаши ўз-ўзини бошқаришини ривожлантиришнинг асоси сифатида. *Science and Education*, 3(6), 581-586.
3. Mavlonova R. va boshq. *Pedagogika*. Darslik. Toshkent, 2001.
4. Toirjonovich, A. Z. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2, 92-96.

5. Арипов, З. Т. (2020). Процесс Формирования Коммуникативно-Речевой Готовности Старших Дошкольников К Обучению. In *Проблемы Филологического Образования* (pp. 108-112).
6. Toirjonovich, A. Z. (2022). XALQ O'YINLARINING ETNOPEDAGOGIK TASNIFI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 77-81.
7. Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiylash va rivojlantirish. *Общество и инновации*, 2(12/S), 86-92.
8. Toirjonovich, A. Z. (2023). Creative Self-Development of the Personality of the Future Teacher. *Central Asian Journal Of Social Sciences And History*, 4(2), 49-56.
9. Zoirjon, A., & Ominaxon, O. (2022). Nutq Buzilishi Turlari Va Ularning Xususiyatalri. *Research Focus*, 1(4), 216-221.
10. Aripov, Z. (2023). Modern Requirements for the Professional Development Of A Teacher. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 175-178.
11. Zoirjon, A. (2023). Important aspects of ensuring the effectiveness of training in primary education. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 12(6), 67-73.
12. Aripov, Z., & Oripova, O. (2023). ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR E'TIBOR MARKAZIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 135-138.
13. Aripov, Z. (2023). UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 1(7), 120-124.
14. Zoirjon, A. (2023, December). EDUCATOR AND ITS ROLE IN SOCIETY. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 19, pp. 108-112).